

## Mahalliy materiallarga asoslangan MDF plitalari ishlab chiqarish texnologiyasi yaratildi

Qurilish materiallari sanoati bir qator sanoat korxonalarining ko'p sonli chiqindilaridan keng va samarali foydalanishga qodir bo'lgan xalq xo'jaligi sohasidir. Qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatining muhim va ustuvor yo'nalishlaridan biri bu ekologik toza, ishlab chiqarish qobiliyatini oshirish va qurilish mahsulotlari, shu jumladan, qishloq xo'jaligi chiqindilaridan foydalanish orqali ekspluatatsion xususiyatlarini oshirishdan iborat. Ushbu turdagi ilmiy yechimlar yog'och materiallariga alternativa bo'lgan mahalliy materialdan MDF plitalarini ishlab chiqarish uchun xom-ashyolardan qo'llaniladi. Ishlanma mualliflari - O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo institutining D.Odilov rahbarligidagi olimlari. Jamoa MDF plitalarini ishlab chiqarish uchun yangi texnologiyani yaratdi.





Ishlanmaning afzalligi. Respublikada har yili katta maydonlarda bir yillik o'simliklar - bug'doy, sholi, kanop, moyli o'simliklar va qamish ekiladi. Statistika shuni ko'rsatadiki, mamlakatda har yili qimmatbaho tola ishlab chiqarish uchun sellyuloza tutuvchi xom-ashyo zahiralari yillik o'simliklarning chiqindilari ko'rinishida shakllanadi, masalan: guruch somon (yiliga 250 ming tonna), bug'doy somon (yiliga 5,5 ming tonna), paxta - g'o'zapaya (yiliga 4 ming tonna), qamish va boshqalar. Ishlab chiqilgan texnologiya MDF plitalarini ishlab chiqarish uchun yuqorida keltirilgan xom-ashyodan foydalanishga imkon beradi.

Agrosanoat majmuasining modifikatsiyalangan tolalar - chiqindilaridan foydalangan holda mahalliy materiallar asosida MDF plitalarini ishlab chiqarish uchun resurstejovchi, ekologik toza va samarali ishlab chiqarish texnologiyasini ishlab chiqish O'zbekistonning innovatsion iqtisodiyoti uchun yangi mahsulot turini beradi.